

ovqatlari va boshqalar haqida axborot berishi ko'zda tutiladi.[6]

Dunyoqarashning milliy xususiyati, yuqorida ta'kidlaganimizdek, uning muayyan til doirasida chegaralanishi bilan bog'liq. Har bir lingvomadaniy jamoada tarkib topgan metaforalar, stereotiplar, etalonlar faqat bir tilga xos bo'lgan xususiylikka olib keladi.[7]

Shunday qilib, til, tafakkur va madaniyat o'zaro shunchalik bog'likki, ulardan hech biri boshqa ikkinchisiz ishlay olmaydigan (o'z navbatida, mavjud bo'lmagan), tashkil topuvchi bir butunni tashkil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Моргошия И.Н. Проникновение англицизмов в узус современного грузинского языка: Автореф. дисс. ... канд. наук. – М., 2003– 22 с.
2. Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. – М., 2006. – 280 с.; Рахматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. – Т., 2010. – 240 б.
3. Сазанец И.В. Английский гибридизм: производные гибриды: Автореф. дисс. ... канд. наук. – М., 2008 – 22 с.;
4. Кариова Г.Ф. Структурно-семантические особенности русских заимствований в английском языке:.. – М., 2013; – 23 с.
5. Қаранг: Дуплийчук В.А. Новейшие английские заимствования в русском языке в свете теории перевода: Автореф. дисс. ... канд. наук. – М., 2010. – 23 б.
6. Елистратов А.А. Английские варваризмы в жаргоне советских хиппи: структурно-семантический аспект // Филологические науки в России и зарубежом // Материал междунар. науч. конф. – СПб. – 2013. – С. 47-50;1
7. Holiqova M. Milliy mentalitet va uning til kartinasi

BAHODIR ISO SHE'RLARIDA MILLIY-MADANIY BIRLIKLARNING IFODALANISHI

ВЫРАЖЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНО – КУЛЬТУРНОГО ЕДИНСТВА В СТИХОТВОРЕНИЯХ БАХОДИРА ИСО

THE EXPRESSION OF NATIONAL – CULTURAL UNITS IN THE POEMS OF THE BRAVE JESUS

G.ISOMOVA, *Qo'qon DPI tadqiqotchisi*

Annotatsiya. Maqolada millat tili, uning madaniyati, urf-odatlarini asrash, shoir Bahodir Iso she'rlaridagi ona tiliga, millatiga bo'lgan muhabbat haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: milliy til, urf-odat, ona tiliga muhabbat, milliy kiyim, milliy madaniyat, milliy ruh.

Аннотация: В статье говорится о национальном языке, о культуре и обычаях нации, о сохранении этих обычаев, о любви к родному языку и нации в стихотворениях поэта Баходира Исо.

Ключевые слова: родной язык, обычаи, любовь к родному языку, национальная одежда, национальная культура, национальный дух.

Annotation: The article deals with the language of the nation, its culture, preservation of traditions, love for the mother tongue and nation in the poems of the poet Bahadur Isa.

Keywords: national language, customs, love for mother tongue, national dress, national culture, national spirit.

Dunyo gultoji bo'lgan insoniyatning turli millatlardan iboratligi va bu millatlarning har biri o'z tiliga hamda qadriyatlariga ega ekanligini xuddi gulzordagi gullar turfaligiga

qiyoslasa bo'ladi. Turfa gullarsiz gulzor gulzor bo'la olmagan kabi, dunyo ham turli millatlarsiz dunyo maqomida qolishi dargumon.

Millatlar, tillar, urf-odatlar xilma-xilligi insoniyatning bir-biriga bo'lgan qiziqishi, hurmat-ehtiromi, do'stlik, birodarlik tuyg'ularini paydo qiluvchi va saqlab turuvchi yagona omil bo'lsa kerak. Chunki yer yuzidagi odamlar bir-birlarining tili, urf-odati, umuman, qadriyatlarini o'rganish orqali bir-birlari bilan til topishadilar va o'zaro do'stlik munosabatini o'rnatadilar. Bu munosabatlar sabab bir millat tilidan ikkinchi millat tiliga so'zlar o'tib o'zlashadi va lug'at boyiydi. Lekin boshqa tilning o'tib o'zlashayotgan so'zlari lug'atiga yangi so'z qabul qilayotgan millat tilining qadimiy jilosiga soya solishi, ya'ni ko'p so'z va iboralarning unutilishiga sababchi bo'lishi ham mumkin. Til jozibasini turli jarohat va ofatlardan saqlab, ajdodlardan avlodlarga olib o'tuvchi ulkan bir kuch borki, bu adabiyotdir. Millatning shoir va yozuvchilari yozgan va yozayotgan asarlarida o'zlari mansub bo'lgan el-ulusning urf-odat va qadriyatlariga xos bo'lgan so'z va atamalardan, milliy madaniy birliklardan qancha ko'p foydalansalar, millat tili, madaniyati, tiynatini saqlab qolishga shuncha ko'p xizmat qilgan bo'ladilar.

O'zbek milliy madaniyatining mashhur vakillaridan biri, ma'rifatparvar olim Abdulla Avloniy "Har bir millatning o'zligini ko'rsatadurg'on oynai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdir" deb ta'kidlaydi. Darhaqiqat, til - millat ko'zgusi, ma'naviyat sarchashmasidir.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning butun xalqimizni kitobxonga aylantirish yo'lidagi jonbozliklari, adabiyot ahliga bo'lgan beqiyos e'tiborlari, viloyatlarda ijod maktablarining tashkil etilishi bejizga emas, albatta. Bularning zamirida millatimizni, tilimizni, madaniyatimizni, umuman o'zligimizni kelajak zamonlarga bus-butun holda olib o'tish maqsadi mujassam.

Til uchun, millat uchun fidoyilik adib va shoirlarning qonida bo'ladi. Ular bu fidoyiliklarini minnat qilmagan holda o'z ijodlari bilan millatga, uning gullab-yashnashiga boshqa sohadagi fidoyilar qatori xizmat qiladilar.

Farg'onada yashab ijod qilayotgan shoir Bahodir Iso ijodiga nazar solgan she'rxon ham shoir she'rlaridagi samimiy satrlardan uning o'z ona tiliga, millatiga bo'lgan ana shu beminnat fidoyilikni osongina ilg'ab oladi. Shoir ijodida milliy ruh ustuvor ekaniga guvoh bo'ladi.

Zero, Bahodir Isoning "Roshidon", "Sunnat to'yi manzarasi", "Qaniydi" kabi ko'plab she'rlari bilan bu fikrimizni dalillay olamiz.

Keling, shoirning mashhur o'zbek polvoni Tursun Ali Muhammadga bag'ishlangan "Oq yaktak" she'ri bilan tanishaylik:

Achchiqlanib shu kunlar o'zimdan so'rayapman,

O'zbekning kiyimini kim qachon chayib ketdi?

Tursunali polvonni tushunib borayapman – Oq yaktak kiyadigan erkak kamayib ketdi. Shoir nega achchiqlanyapti? Uni nima havotirga solyapti? Bu yerda gap faqat oq yaktakning o'zidami yo boshqa gap bormi? Albatta boshqa gap bor. Shoir bugun milliy kiyimidan kechganlar ertaga millatidan, tilidan ham kechib yubormasmikin degan havotirini izhor qilyapti bu satrlarda.

Polvon akam yaktakni kiymaydi ko'z-ko'z uchun,

Yo birov aytadigan shirin maqtov so'z uchun. O'v, oshna! Cho'chisangiz siz bitta so'zdan cho'ching –

Oq yaktak kiyadigan erkak kamayib ketdi.

Mo'minlarning libosi oq bo'ladi demishlar, Oq libosdan ba'zilar or qilishar emishlar, Shu emasmi qadriyat, udumlarni ko'mishlar?!

Oq yaktak kiyadigan erkak kamayib ketdi...

Keyingi satrlarda esa shoir ushbu libosimiz bizga ota-bobolarimizdan meros bo'lib qolgani, uni har doim kiyib ardoqlashimiz kerakligini uqtiradi. Milliy libosimizdan o'zicha or qiladigan zamonaviy oliftalarga oq yaktakning er yigitlarga nechog'li yarashliq ekanligini eslatib qo'yadi:

Ming yillar ko'rgan kiyim endi yomon bo'ptimi?

Ko'ksi bo'ron ko'rmagan o'g'lon o'g'lon
bo'ptimi?!
Yaktak kiyib yurmagan polvon polvon
bo'ptimi,
Oq yaktak kiyadigan erkak kamayib ketdi...

Shoir har bir millatning o'z milliy libosi, urf-
odati borligidan so'z ochib, bu merosga
mensimay qarash aynan o'sha millatning
o'ziga g'am-g'ussa keltirishini eslatib o'tadi:

Millat degan avvalo farqlanadi
kiyimdan.
Qanday ayro tushdim bu shodiyonam,
to'yimdan?
Bir tushkunlik, bir g'ussa
ketmay qoldi o'yimdan –
oq yaktak kiyadigan erkak kamayib ketdi.

Polvonga yarashadi do'ppi, choponu
belbog',
Yana o'sha belboqqa osib olingan pichoq.
Uyg'oning ayni shu dam,
uyg'oning ayni shu chog',
oq yaktak kiyadigan erkak kamayib ketdi.

She'ning yakuniy misralarida shoir
kuyinib, milliyligimizni saqlash uchun har
birimiz mas'ul ekanligimiz, o'zbek
ekanligimizdan faxrlanishimiz esa bizdan
avlodlarga o'tishi kerak bo'lgan eng muhim
hissiyot ekanligini uqtiradi:

Tursunali polvonni tushunib borgan sarim,
O'zimning holimgayam yuragim kuyib
ketdi...

Mengayam, sizlargayam nima bo'ldi,
do'stlarim,

Oq yaktak kiyadigan erkak kamayib
ketdi?...

Bahodir Iso she'rlarida milliy-madaniy
birliklarni ifodalovchi yana ko'plab satrlarni

uchratish mumkin. Uning "Duo qiling,
ko'zlanmasin O'zbekiston" hamda
O'zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjon
tavalludining 60 yilligiga bag'ishlab yozilgan
"Anvar shoir" kabi she'rlarida milliy libosimiz
bo'lgan "to'n"ga ham duch kelamiz. Ayniqsa,
"Iztirob" she'rida beshik, milliy qo'shig'imiz
alla, ko'zmunchoq, ko'ztumor kabi qadrdon
so'zlar orqali miliylikimizni ifoda etuvchi
belgilarga ro'baro' kelamiz.

Ona aziz, ona mo'tabardir. Bizni
dunyoga keltirgan, oq yuvib oq taragan,
bizga allalar aytib, mehr berib o'stirgan
onamizga qancha xizmat qilsak kam.
Bahodir Isoning "Iztirob" she'rini o'qigan
she'rxon mutolaa jarayonida o'z onasini ko'z
oldiga keltirib, onaizorini yanada hurmatlab
e'zozlashi kerakligi haqida o'yg'a tolisi
shubhasiz. Chunki, she'rda milliylikimizni
aks ettiruvchi belgilar tasviridan tashqari har
bir o'zbek farzandi ota-onasini hurmatlashi,
e'zozlashi, qadriga yetishi kerakligi haqidagi
xulosa kelib chiqadi. Ota-onani e'zozlash
esa milliy madaniyatimizning eng muhim
belgilaridan hisoblanadi.

Donishmand bobolarimizning hayot
tajribasidan kelib chiqib aytgan ajoyib
o'xshatishli hikmat gaplari, mavzumizga
moslab aytadigan bo'lsak, tilimizga va jonli
nutqimizga uzukka qo'yilgan ko'zday
yarashib turgan, uni yanayam boyitayotgan
milliy-madaniy birliklarning aholi muloqotida
bardavom bo'lishida badiiy adabiyotning,
ayniqsa, she'riyatning xizmati beqiyos.
Demak, millat tilining kelajagi ijodkorlarimiz
bitgan asarlarning nechog'lik milliy ruh bilan
sug'orilishiga ham bog'liq ekan. Shu jihatdan
qaraydigan bo'lsak, taniqli shoir Bahodir Iso
ham jonajon ona tilimiz umrining
bardavomligiga samarali hissa qo'shib
kelayotgan millatparvar shoirlardan biri deb
bimalol ayta olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Polvonlardan polvon kelar" Toshkent 2012y. Toshkent "Navro'z" 120 -121 – betlar.
2. "Odamlar ichidan odam izladim". She'rlar. Farg'ona nashriyoti 2005y. 52- bet.